

chiqishi, o'simlikda hayotchanlik davri boshlanganligidan dalolat beradi. Kuzgi bug'doy urug'larning ekish, unib chikish davri, rivojlanish fazalarining davomiyligi juda ko'p omillarga harorat, namlik, yorug'lik, oziqa moddalar bilan taminlanishi, navning biologik xususiyatlari, agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda o'zgaradi.

«Hisorak» navida ekish me'yori 3.0 mln dona unuvchan o'g'it me'yori $N_{120} P_{60} K_{60}$ va $N_{210} P_{105} K_{105}$ kg/ga qo'llanilgan variantlarda boshqoq uzunligi 8.6-9.8 sm, boshqoqdagi soni 41.2-43.7 donani, 1 ta boshqoqdagi don massasi 1.40-1.54 gramm, mahsuldor poyalar soni 371.0-445.8 dona, 1000 ta don massasi 30-35 grammni tashkil etib, ekish me'yori 4.0 mln unuvchan urug', o'g'it me'yori $N_{120} P_{60} K_{60}$ va $N_{210} P_{105} K_{105}$ kg/ga qo'llanilgan variantda boshqoq uzunligi 8.8-10 sm, boshqoqdagi donlar soni 42.0-48.4 donani, 1 ta boshqoqdagi don massasi 1.34-1.56 gramm, mahsuldor

poyalar soni 413.8-450 dona, 1000 ta don massasi 31.5-37.1 grammacha bo'lib. ekish me'yori 5.0 mln unuvchan urug', o'g'it me'yori $N_{120} P_{60} K_{60}$ va $N_{210} P_{105} K_{105}$ kg/ga qo'llanilgan variantda boshqoq uzunligi 8.8-9.4 sm, boshqoqdagi soni 50.4-57.9 donani, mahsuldor poyalar soni 444.5-482.3 dona 1000 ta don massasi 38.1-48.1 gramm ekanligi aniqlandi.

Xulosa shuki, ekish meyorlarining 3.0 mln. unuvchan urug'/ga dan 6.0 mln. unuvchan urug'/ga oshirilishi va shunga muvofiq o'g'itlar meyorining oshirilishi urug'larning ekinboplik sifatleri (1000 ta don massasi, konditsion urug' chiqimi, urug'ning unib chiqish quvvati, unuvchanlik, o'sish kuchi) ta'sir kursatadi. Kuzgi bug'doyning «Hisorak» navidan yuqori hosil va sifatli urug'lik olish uchun, maqbul ekish va o'g'it meyorlarini ilmiy asoslangan holda, ekish me'yori 5 mln unuvchan urug'/ga va o'g'it me'yori $N_{180} P_{90} K_{90}$ kg/ga hisobida qo'llash tavsiya etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Atabaeva X.N. Yesbolova M. Ozimaya pshenitsa. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. № 3. 2007. -B. 17.
2. Atabaeva X.N. Kuzgi Bug'doy istiqboli navlari hosildorligiga ma'dan o'g'itlar meyorini ta'siri. O'zbekistonda bug'doy seleksiyasi va yetishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya. Toshkent. 2004. -B. 27-28.
3. Shukurovna, Q. U., & Shodmonovich, A. S. (2023). KUZGIYUMSHOQ BUG 'DOYNING «QIPCHOQSUV» NAVINING O 'SISHI, RIVOJLANISHI, HOSILDORLIGIGA EKISH VA O 'G 'IT ME'YORLARINING TA'SIRI. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 96-102.
4. Shukurovna, Q. U. (2023). YUMSHOQ BUG 'DOY NAV VA TIZMALARINI SELEKSIYA KO 'CHATZORIDA QIMMATLI BELGI XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 46-49.
4. Juraev, D. T., Dilmurodov, S. D., Kayumov, N. S., Xujakulova, S. R., & Karshiyeva, U. S. (2023). Evaluating Genetic Variability and Biometric Indicators in Bread Wheat Varieties: Implications for Modern Selection Methods. Asian Journal of Agricultural and Horticultural Research, 10(4), 335-351.
5. Ziyadullaev Z.F, Abduazimov A.M. Karshiyeva, U. Turli ob-havo sharoitlarida bahorgi yumshoq bug'doy navlari hosildorligi. O'zbekistonning janubiy hududlarida boshqoqli don ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarining holati va rivojlantirish istiqbollari. 14-15 may Qarshi- 2018.-B. 34.
6. Bekmuradova X. K., Ergashev I. T. HIMOYALANGAN GRUNTDA BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA TURLI EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI //SCHOLAR. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 70-76.
7. Бекмурадова, X. K., & Исмоилов, A. И. Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. ББК 65.2 C56, 58.

UO'T: 635.62(575.1)

XASHAKI QOVOQ VA UNING CHORVACHILIKDAGI AHAMIYATI

Umurzoqova Umida Elmurod qizi, tayanch doktorant,
Berdimuratov Elyor Xayrullayevich, q.x.f.f.d., dotsent,
Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada xashaki qovoqning sistematikasi, tarqalishi va biologik xususiyatlari va uning chovachilikdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Xashaki qovoqning oziqaviylik qiymati va chorva hayvonlari uchun oziqa sifatida foydalanish samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: qovoq, xashak, turlari, ozuqaviylik qimmat, sistematikasi, agrotexnikasi.

Аннотация. В статье приведены сведения о систематике, распространении и биологических особенностях кормовой тыквы и ее значении в животноводстве. Освещена пищевая ценность кормовой тыквы и эффективность ее использования в качестве корма для скота.

Ключевые слова: тыква, сено, виды, пищевая ценность, систематика, агротехника.

Abstract. The article provides information about the taxonomy, distribution and biological characteristics of fodder pumpkin and its importance in animal husbandry. The nutritional value of fodder pumpkin and the effectiveness of its use as livestock feed are covered.

Key words: pumpkin, hay, species, nutritional value, taxonomy, agricultural technology.

Kirish. Dunyo mamlakatlarida poliz yekini 6.5 mln. gektar maydonga ekiladi va 145 mln. tonnadan ortiq mahsulot

yetishtiriladi. Shundan qovoq 2.3 mln. g maydonga yetishtirilib, 29 mln. tonnadan ziyod mahsulot olinadi.

Dunyo bo'yicha qovoq hosildorligi gektaridan 13 tonnani bunda Hindiston va Xitoyning ulushi umumiy yetishtirilgan mahsulotning qariyb yarimini tashkil yetadi. AQSH, Rossiya va Ukraina mamlakatlarida 1 mln. tonnadan ziyod qovoq yetishtiriladi. Mamlakatimizda har yili 300 ming tonnaga yaqin miqdorda qovoq yetishtiriladi.

Dunyo bo'yicha qovoq agrobiologiyasini o'rganish borasida bir qator ilmiy va amaliy ishlar bajarilgan. Bu ishlarining aksariyat qismi oziq-ovqat sanoatida foydalaniladigan qovoq navlarini yetishtirish borasida olib borilgan. Ayniqsa, bu yo'nalishda Yevropa mamlakatlarida, AQSH, Rossiya, Xitoy davlatlarida qovoq yetishtirish texnologiyasining zamonaviy ishlanmalari keng joriy qilingan. Bu davlatlarda qovoqning oziq-ovqat uchun ishlatiladigan navlarini agrobiologik va texnologik xususiyatlari, ularni qayta ishlash texnologiyasi chuqur o'rganilgan va o'rganilmoqda. Biroq ko'pgina mamlakatlarda xashaki qovoq navlarining agroteknikasi va texnologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning salmog'i yuqori yemas.

O'zbekistonda xashaki qovoq yetishtirish va undan chorvachilikda foydalanish keng tarqalmagan. Xashaki qovoq yetishtirish, ularni navlari va mevalarini oziqaviylik qiymati kam o'rganilgan [1, 2].

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyati o'tloqi bo'z tuproqlarida xashaki qovoq hosildorligiga uning yekish muddatlari, yekish sxemalari va mineral o'g'itlarning ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqotning dastlabki vazifasi xashaki qovoq hosildorligiga o'g'itlash va yekish muddatlarining ta'sirini xorijiy manbalar asosida o'rganib, Samarqand viloyati bo'z tuproqlari sharoitida tajribalar asosida o'rganishdan iborat.

Tadqiqot uslublari va yo'nalishlari. Qovoq agroteknikasi, uning agrobiologik va texnologik xususiyatlari Djefferi, L.Beyli, A.I.Filov, V.V.Arisimovich, I.M.Ashero, I.F.Toreov, S.Y.Mixeyev, O.A.Markina, G.A.Tarakanov, X.Ch. Bo'riyev, S.T.Azimova, D.Oakenfull, A.Scott, S.Wilson, N.Danilenko va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonda qovoq bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari I.I.Ashero, H.Ch.Bo'riyev, A.S.Rustamov, I.Ye.Amonova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Shunday bo'lsada, xashaki qovoq navlarini tanlash, nav agroteknikasini yaratish va xashaki qovoq mevasini biokimyoviy tarkibi hamda chorvachilikdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli yemas.

Samarqand viloyati o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida xashaki qovoqning nav xususiyatlarini o'rganish, uni yekish muddati va sxemasi hamda mineral o'g'itlash me'yorlarini o'rganish zaruriyati mavjud. Shuningdek xashaki qovoq mevasini chorvachilikda foydalanish texnologiyasini ilmiy asoslash ham maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari. Qovoq (Cucurbita) bir yillik o'simlik bo'lib, qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga oid avlod hisoblanadi. Qovoq qimmatli oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Ko'pgina sabzavot yekinlaridan uglevodlar, vitaminlar va mineral tuzlar miqdori jihatidan ustun turadi. Ulug' rus biologi, akademik P.M.Jukovskiy o'zining asarida qovoqning ahamiyati to'g'risida to'xtalib "Qovoq o'tgan zamonda inson oziqlanishida muhim o'rinni egallagan, uning kelajakdagi o'rni shubhasiz beqiyosdir" deb yozib qoldirgan. Qovoqning chorva uchun sersuv vitaminli ozuqaviylik xususiyatlari qadimdan ma'lum. Ko'pgina mamlakatlarda yirik shoxli hayvonlar va cho'chqalarni oziqlantirishda qovoqdan foydalaniladi.

N.I.Vavilov xashaki qovoqning bir qator afzalliklariga to'xtalib, uning zararkunanda va kasalliklar bilan kuchsiz zararlanishi va ko'p yekinlarga nisbatan yetishtirish kam xarajatchi hamda A

provitamini, C vitamin va mineral tuzlarning barqaror bo'lishligini ta'kidlab o'tgan. Xashaki qovoq tarkibida suvning miqdori ko'p bo'lishi uni uzoq vaqt saqlash imkoniyatini belgilaydi. Shu sababli, xashaki qovoqni makkajo'xori bilan birgalikda silos qilish tavsiya qilinadi.

Markaziy Osiyo hududi qadimgi dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston hududida tarqalgan madaniy yekinlarni yoshi jihatidan qovoqni yetishtirish tarixi juda qadimga borib taqaladi. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, yeramizdan oldingi ming yillikda donli va moyli yekinlar qatorida poliz yekinlaridan qovun, qovoq yetishtirilgan (Mahmudova 1966 va boshq.). Qadimgi shahar Tuproq-Qalada olib borilgan arxeologik qazilmalarda yeramizdan oldingi 7-8 asrlarga oid qovoq qoldiqlari topilgan. Qovoq yetishtirish, uning mevasi va urug'ini tibbiyotda qo'llash haqida ulug' bobomiz Ibn Sino kitoblarida («Tib qonunlari») yeshatib o'tilgan. Qovoq yetishtirish haqidagi ma'lumotlar 13-15 asrlarga oid qadimgi arab va fors manbalarida, jumladan "Ijrad-az-ziraat" kitobida keltirilgan.

P.M.Jukovskiy fikriga ko'ra, qovoq 1500 yilda dastlab Braziliyadan Hindistonga olib kelingan va u yerdan butun Osiyoga tarqalgan.

I.M.Ashero (1979) fikricha, arxeologik qazishmalar natijasiga ko'ra, shu bilan birga tarixiy xujjat va adabiyotlar manbasiga tayanib, qovoq O'zbekistonda ming yillar oldin yetishtirilganligidan darak beradi.

Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston hududida ko'p asrlar davomida qovoqning turli tuman navlari shakllangan, shu sababli I.M.Ashero (1979) bu hududni qovoq yekini alohida mustaqil shakllanish markazi deb qarashni taklif qilgan. Bu hududda qovoqning nav tarkibi, tuproq-iqlim va tarixiy sharoitlar ta'siri shakllangan. Ayniqsa, O'zbekiston hududidagi o'zgaruvchan iqlim va turli tuproq tiplari yekinlarni sharoitga mos yendemik turlarini shakllanishida hamda dehqonchilik rivojlanishida, yekin turlari tarkibini aniqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

I.M.Ashero (1979) bir necha yillar mobaynida poliz yekinlari, jumladan qovoqni O'zbekiston hududida tarqalgan tur va navlarini o'rganish natijasida turli agroyekologik sharoitlarida bir necha o'choqlarini (oasis) aniqlagan: 1. Quyi Amudaryo agroyekotipi (Qoraqalpog'iston, Xorazm). 2. Sharqiy agroyekotipi (Toshkent, Sirdaryo). 3. Farg'ona oazisi (Farg'ona, Andijon, Namangan, Qirg'iziston O'sh viloyati va Xo'jand Tojikiston). 4. Zarafshon oazisi (Samarqand, Buxoro). 5. Janubiy oasis (Surxondaryo, Qashqadaryo).

O'zbekistonda qovoq hamma viloyatlarda yetishtiriladi va har qaysi tomorqa maydonlarida yekilib kelinadi. Ayniqsa, respublikamizning shimoliy viloyatlarida (Qoraqalpog'iston, Xorazm) qovoq juda ko'p yekiladi.

Hozirgi davrda sabzavot yekinlarini yetishtirish juda dolzarb muammolardan hisoblanadi, ayniqsa aholi sonini oshishi sababli bu mahsulotlarga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Bu yesa hamma oziq-ovqat mahsulotlariga shu jumladan sabzavotlarga bo'lgan aholini iste'mol yehtiyojlarini oshiradi.

Qovoq sabzavotlar ichida yeng foydali va xushta'm bo'lib, bizning hududimizda qadimdan yetishtirilib iste'mol qilinib kelinmoqda. Qovoq uzoq saqlanadigan meva bo'lib, uni yil mobaynida iste'mol qilish imkoniyati bor. Uning bu xususiyatidan aholini uzluksiz sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlashda foydalanish mumkin.

"Qovoq" so'zi tatar va turk tilida kabak, azarbayjon tilida gobak, qadimgi grek tilida sikuda, rus, bolgar, rumin tilida tykva, fors tilida kadu deyiladi. O'zbekistonda ilmiy manbalarda qovoq, ko'pchilik mahalliy aholi yesa kadi deyishadi.

Qattiq po'stli yoki oddiy qovoq (C.pepo H.) Shimoliy Amerikadan, yirik mevali qovoq (C.maxima Duch.) Janubiy Amerikadan, muskat qovoq (C.moschata Duch.) Markaziy Amerikadan kelib chiqqanligini polizshunos olim V.Belik yozib qoldirgan.

Hozirgi davrda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirish va sohaga innovasion texnologiyalarni joriy qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Keying yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish ko'paymoqda va aholini hamda yekspert yehtiyojini qoplash masalalariga katta ye'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu borada chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va sohani ozuqa bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga yega.

Chorva mollarini ozuqasini to'liq rasion bilan ta'minlashda yem-xashak yekinlarini yetishtirish va ularni imkoniyatlaridan to'liq foydalanish muhim ahamiyat kasb yetadi. Bu borada hosildorligi va ozuqaviyligi yuqori bo'lgan poliz yekinlari alohida o'rin tutadi. Biroq, mamlakatimizda poliz yekinlaridan yem-xashak yekini sifatida uning imkoniyatlaridan foydalanishning salmog'i juda kam.

Yem-xashak yetishtirishda yirik mevali qovoq turlari istiqbolli yekin hisoblanib, ushbu yekin mevasi yirik shoxli chorva, cho'chqa, parranda, quyon uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qovoqni yirik shoxli chorva ozuqasi rasioniga kiritish uni sut mahsuldorligini 5-12% ga, quyonlarni junini sifatini va sut sifatini oshirishi aniqlangan. Ayniqsa cho'chqachilikda xashaki qovoq muhim ahamiyatga yega. Cho'chqa oziqa rasioniga xashaki qovoqni kiritish uning tirik vaznini sutkasiga 500-800 g ga oshirishi aniqlangan (L.I.Podobed, 2018.)

Xulosa qilib aytganda qovoq sabzavotlar ichida yeng foydali va xushta'm bo'lib, bizning hududimizda qadimdan yetishtirilib iste'mol qililib kelinmoqda. Qovoq uzoq saqlanadigan meva bo'lib, uni yil mobaynida iste'mol qilish imkoniyati bor. Uning bu xususiyatidan aholini uzluksiz sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlashda foydalanish mumkin. Chorvachilikda xashaki qovoqni oziqa rasionida salmog'i, kg/sut/yil: Yirik shoxli hayvon – 16; cho'chqachilik -15; quyonchilik – 4; qo'ychilik – 0.16

ADABIYOTLAR:

1. Дунин А.П., Трос В.Б. Влияние схем посева и минеральных удобрений на урожайность тыквы крупноплодный // Сборник статей Международной научно-практической конференции «Проблемы и тенденции научных исследований в системе образования». Тюмен, 2019. С. 106-109.
2. Трос В.Б., Дунин А.П., Трос С.В. Влияние схем посева на развитие растений и урожайность тыква // Аграрная Россия. 2020. №1 С. 44-48.
3. Основы научных исследований в плодоводстве, овощеводстве и виноградарстве / В.Ф. Моисейченко и др. М.Колос, 1994. 381 с.
4. Ахмедов О. Сроки и густота посева тыквы. // Картофель и овощи. 1984 №11 С. 38.
5. Гейдарлы К.Б. Изучение схем и сроков посева крупноплодный, мускатной и твердокорой тыквы // Пути интенсификации производства плодов, винограда и овощей в Азербайджанской Сб.статей. Кировабад, 1989 С. 49-59.
6. Лебедева А.Т. Тыквенные культуры. М. Росселхозиздат, 1987. 80 с.
7. Луцис Т.Е. Тыквенные: тыква, кабачки, патиссоны, арбуз, дыня. М.Книжный дом, 2001. 80 с.
8. Sanches Conde M.P. Respuesta de la planta de calabacin (C.pepo) ante difer-yentes dicide nitrogeno o de potasio // Agrochimica. 1988. 32. № 2 – 3. S. 108-118.
9. Swiader J.M., Sullivan J.G., Freji F. Nitrate monitoring for pumpkin production on dryland and irrigate soils // J. Am. Soc. Hortic. Sc. 1998. – 113. – 5 –p. 684-689.118

UO'T: 635.62(575.1)

INQIROZGA UCHRAGAN YANTOQZORLARNI TUBDAN YAXSHILASH TEXNOLOGIYASI

Mavlanov Xudargan, biologiya fanlari doktori, professor,
Qodirova Sayyora Qarshibayevna, katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Annotatsiya. Chorva mollarini zo'riqtirib boqish va yaylovlardan tartibsiz foydalanish oqibatida inqirozga uchragan yantoqzorlarni, cho'l va yarim cho'l chorvasini, yem-hashak bazasini tubdan yaxshilash shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ishning maqsadi kam hosilli siyraklashgan tabiiy yantoqzor jamoasini hosildor yem-hashak o'simliklarini ekish usuli bilan yaxshilash va uning hosildorligini 5-10 marotaba oshirish texnologiyasini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: Agrofitorosenoz, yantoq, Alhagi, inqiroz, bioxilma-xillik, cho'l, antropogen, gemikserofit, adaptatsiya, texnogen.

Аннотация. Одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня является коренное улучшение янтакчиков, пустынного и полупустынного животноводства, кормовой базы, находящейся в деградации из-за напряженного кормления животных и нерегулярного использования пастбищ. Цель работы состоит из создания технологии повышения урожайности в 5-10 раз сообщество малопродуктивных изреженных естественных янтакчиков путем подсева продуктивных кормовых растений.

Ключевые слова: агрофитосеноз, янтак, Alhagi, деградация, биоразнообразие, пустыня, антропогенный, гемиксерофит, адаптация, техногенный.